



O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA TO'G'RI YO'NALTIRISH DAVR TALABI

Mamadaliyeva Sevara Rustamaliyevna

Namangan viloyati Pop tumani maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limiga qarashli 69-sonli
umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish mavzusida yozilgan bo'lib, unda maktab yoshidagi va bitiruvchilarni o'zi qiziqqan va orzu qilgan kasbga to'g'ri yo'naltirish haqida ma'lumotlar yozilgan.

Kalit so'zlar: kasb, Ta'lim to'g'risidagi qonun, klassifikatsiya, mahorat.

Bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirish sohasida mavjud bo'lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasbhunarga yo'naltirish, xususan, kasblar olami bilan tanishtirish usullarini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi kasbiy targ'ibot va tashviqotni o'z ichiga olgan kasbiy ma'rifat (kasbiy axborot); u yoki bu soha, kasbga bo'lgan shaxs qiziqish va qobiliyatlarining birlamchi kasbiy tashxisi, kasb tanlashda mutaxassislar tomonidan individual, guruh yordam ko'rsatishga qaratilgan kasbiy maslahatlar, ko'proq muvofaqiyatga erishishi mumkin bo'lgan kasbni tanlab olishga qaratilgan kasbiy tanlov, ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-kasbiy moslashuv, tanlangan kasbni o'rganish jarayonida burch, mas'uliyat, kasbiy or-nomus hislarini o'quvchilarda shakllantirishga qaratilgan. Undan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, kasb klasifikatsiyasi, kasblar professiogrammasi, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi to'g'risidagi axborotlarni berishdan iborat bo'lib, ular asosida o'quvchi o'zini qiziqtirgan, jamiyat uchun zarur bo'lgan kasbni tanlaydi.



1997 yil 29 avgustda O‘zbekistonda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilidi. Ushbu xujjatlarda kasbga tanlashga yo‘llash haqida Prezidentimiz I.Karimov o‘z nutqida quyidagilarga alohida e’tibor bergan:

Bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga ‘pue niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohatlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakli, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz.

Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma’rifatli odam inson qadrini, millat qalriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib, obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin.

Bugungi kunda mutaxassis kadrlarni tayyotlash, ta’lim va bilim berish tizimi, hayotimizda, jamiyatimizda bo‘layotgan islohot, yangilanish jaryonlari talablari bilan yaqindan bog‘lanmaganligi har tomonlama sezilmoqda. Ochiq tan olish kerak: maktablarning moddiy bazasi juda nochor. Bu masalada naqadar oqsoqligimizni, nochorligimizni, birinchi navbatda, qishloq joylaridagi ahvol-vaziyat misolida ochiq tan olishimiz kerak. Ikkinchi masala, avval aytganimdek, tarbiyachi, ya’ni o‘qituvchiga borib taqalyapti. Tarbiyachining o‘ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda. O‘qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, o‘qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni rag‘batlantirish, ularning o‘z ishi, kasbidan mamnun bo‘lishini ta’minlashimiz lozim. Albatta, bu masalani birdaniga yechish qiyin, lekin uni yechmasdan turib, kelajak avlod



tarbiyasi to‘g‘risida gapirishning o‘zi mutlaqo nomaqbuldir. Norasida bolaning miyasi, ongi nimani o‘ziga singdira oladi, nimani qabul qilmaydi? Afsuski, bu haqda hech kim bosh qotirayotgani yo‘q. Shu masalalar bilan shug‘ullanishi kerak bo‘lgan mutasaddi institut va markazlarimiz yetarli. Xulosa shundayki, bugungi umumta‘lim jarayonidagi uch bosqichdan hech qaysisida o‘ziga yarasha talab yo‘q. Boshqacha aytganda, har qanday o‘quv bosqichiga aniq talablar standart darajasida rasmiylashtirilgani yo‘q. Shunga qarab, o‘quv jarayoni, mazmuni, o‘qitiladigan darsliklar sonini, qanaqa sinfda qanday bilim va tarbiya berish kerakligini aniqlash mumkin bo‘ladi. Misol uchun, umumta‘lim maktablarida o‘qitilayotgan fanlarning soni 20 ga yetadi. Lekin, afsuski, o‘quv rejalarida yoshlarga axloq va odob, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy bilimlar asoslarini o‘rgatadigan fanlar yetarli o‘rni olgan emas. Mavjud fanlar esa tarkiban eski holida saqlanib qolmoqda. Bu esa mustaqillik va bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga chiqqan davlat milliy ehtiyojlarni qondirishga to‘sqinlik qilmoqda. Hammamizga ayonki, ta‘lim darslikdan boshlanadi. Achchiq bo‘lsa ham tan olishga majburmiz: deyarli barcha sohada darsliklarimiz ahvoli bugungi va ertangi kun talablari darajasida emas. Bir e‘tibor bering: pedagogika tajribasida “bitiruvchi”, degan ibora bor. Bu iboraga izoh berib o‘tirishning hojati yo‘q. Ya‘niki, bola maktabni bitirsa bas, uning bilim va tarbiyasi haqida gapirma ham bo‘laveradi. Ta‘lim-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, uning mazmunini lo‘nda qilib ifoda etish mumkin: bizga bitiruvchilar emas, maktab ta‘limi va tarbiyasini ko‘rgan shaxslar kerak. SHu joyda yana bir og‘ir savolga duch kelamiz: bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yuritishga o‘rgatiladimi? Aminmanki, o‘rgatilmaydi. Mabodo biror o‘quv o‘qituvchiga e‘tiroz bildirsa, ertaga u hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktablardagi jarayonda o‘qituvchi hukmron. U boladan faqat o‘zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: “Mening aytganim-aytgan, deganim-degan”. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. O‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko‘pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda, tajribamizda



unga rioya qilmaymiz. Ushbu ma'lumotlar orasida kasb klasifikatsiyasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning qanchalik aniq va mukammal o'zlashtirib olinishi o'quvchining ko'plab kasblar orasidan o'z imkoniyatlariga mosini to'g'ri tanlashini belgilaydi. Kasb klassifikatsiyasi haqida so'z yuritishdan avval o'quvchilarning kasb va mutaxassislik tushunchalari hamda ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniq ajratib olishlariga erishish lozim. Keyinchalik kasb klassifikatsiyasi asosida turli interfaol mashqlarni bajarishda bu tushunchalarning ma'no va mazmunini ajrata olish o'quvchilarga yordam beradi. Buning uchun ushbu tushunchalarning ta'riflarini keltirish kerak. Kasb-bu jamiyat uchun zarur bo'lgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma'naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud bo'lish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasidir, masalan, o'qituvchi, shifokor, injener, dizayner va hokazo. Mutaxassislik esa bitta kasb ichida tor doiradagi faoliyat turidir. Masalan, tarix o'qituvchisi, matematika o'qituvchisi, stomatolog, kardiolog, pediater, quruvchi-muhandis, loyihalovchi-muhandis, injener-konstruktor, badiiy libos dizayneri va hokazo. Bundan tashqari, mansab, lavozim hamda ilmiy unvon tushunchalariga ham to'xtalib o'tish foydadan holi bo'lmaydi. Lavozim – bu egallangan kasb va mutaxassislik doirasidagi mehnat jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik, boshchilik qilish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turidir. Masalan, maktab direktori, o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari, bo'lim boshlig'i, bosh injener, zavod direktori, bosh shifokor va hokazo. Ilmiy unvon – bu egallangan kasb va mutaxassislik sohasi bo'yicha kiritilgan yangilik va kashfiyotlar uchun beriladigan ilmiy darajadir. Masalan, fan nomzodi, dotsent, fan doktori, professor va h.k. Barcha kasb-hunarga yo'naltirilgan ishlarni o'rganishda shunday xulosalarni chiqarish mumkin. Ya'ni, kasbiy ma'rifat (kasbiy axborot) o'quvchiga kasblar olamida “kompas” vazifasini bajaradi: aksariyat hollarda o'quvchilar ommaviy va nufuzli bo'lgan kasblarni tanlashga intiladilar; ayrim hollarda o'quvchilarning kasblar haqidagi bilim va tajribalari yuzaki bo'lib, uning yaqqol ko'zga tashlanuvchi, tashqi belgilari hamda xususiyatlariga tayanib qolishadi; kasbiy muvaffaqiyat zahirida



mashaqqatli mehnat yotishi haqidagi ularning bilimlari ko'p hollarda tor va sayoz bo'ladi; o'quvchilarni kasb-hunarga samarali yo'naltirish uchun ular albatta kasblar olami haqida muayyan bir tasavvurlarga ega bo'lishlari, ya'ni shu bugungi kungacha yer yuzida mavjud bo'lgan kasb-hunar va mutaxassisliklar, lavozim o'rtasidagi farqlar, ularning paydo bo'lish hamda yo'qolib ketish sabablarini bilishlari lozim. SHuningdek, to'g'ri kasb tanlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ishlovchi shaxsning jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy xususiyatlariga bo'lgan kasb talablari, mehnat xususiyatlari va ularning insonga ta'siri, zamonaviy ishlab chiqarish sohalari va turlari, kasb-hunar ta'limi hamda ta'lim muassasalari haqidagi ma'lumotlardan xabardor bo'lishi, har bir o'quvchi o'zining shaxsiy, individual-psixologik-fiziologik xususiyat va sifatlarini yaxshi bilishi hamda ularni hisobga olgan holda o'zi uchun ko'proq mos keluvchi mehnat faoliyati sohaslarini tanlay olish malakasiga ega bo'lishi kerak. Kasb klassifikatsiyasi mavzusini o'quvchilarga tushuntirishdan avval bu atamaning mazmunini biroz kengroq tushuntirib berish lozim. Klassifikatsiya – bu narsa va hodisalarning anglangan tartibi bo'lib, ularni birorbir muhim belgisi bo'yicha turlarga ajratishdir. O'quvchilar turli klassifikatsiyalar bilan botanika, zoologiya, ona tili va boshqa fanlarni o'rganishda tanishib chiqishgan hamda uning qulayligini anglashgan. Masalan, hayvonot dunyosi klassifikatsiyasi fan dunyosini o'rganishga yordam berib, o'quvchi biror notanish jonivorga to'qnash kelganda tashqi belgilariga qarab uning xarakteristikasini, ma'lum bir tur va oilaga kiritishi yoki aksincha, jonivorni ko'rmay turib, biroq uni ma'lum bir tur va oilaga kirishini bilgan holda asosiy belgilari bo'yicha xususiyatlarini tuzishi mumkin bo'ladi.

Kasb klassifikatsiyasi turlari bilan o'quvchilarini tanishtirishdan oldin kasb klassifikatsiyasi uchun asos qilib tanlangan belgiga bo'lgan talablar o'quvchilarga aytib o'tilishi lozim, chunki klassifikatsiya uchun kasblarning hohlagan belgilarini olish mumkin emas. Kasb klassifikatsiyasi uchun asos qilib tanlangan belgi quyidagi talablarga javob berishi kerak: Tanlangan kasb belgisi o'zgarmas, muntazam bo'lishi. Tanlangan kasb belgisi barchaga tushunarlilik. Tanlangan kasb belgisi aniq, yorqin bo'lishi. Tanlangan



kasb belgisi bitta belgi bo'yicha faqat bitta guruhga tegishli bo'lishi. Ushbu talablarning biriga javob bera olmasa, bu kasb belgisini klassifikatsiya qilish uchun asos qila olmaymiz. O'quvchilar e'tiboriga kasblarning beshta belgisi (mehnat nomi; mehnat xarakteri; mehnat mahsuloti; mehnat qilish uchun talab etiladigan bilim, ko'nikma, malaka darajasi, kasblarning mamlakat xo'jaligining biror sohasiga tegishli bo'lishi) havola etiladi. Ular har bir kasb belgisidagi kamchilik, ya'ni kasb klassifikatsiyasi uchun tanlanayotgan belgilarning to'rtta talabdan qaysi biriga javob bera olmasligini aniqlashlari lozim. Kasb-hunarga yo'naltirish – umuminsoniy madaniyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida yosh avlodning kasbiy tiklanishi, tabiat in'om etgan (tug'ma) qobiliyatlarini rivojlantirish ko'maklashish, insonga kasbiy o'zligini anglashiga yordam beruvchi maxsus chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, uning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bandlik va maqbul ta'lim turini tanlash ishlarida, turli xil malakali kasb mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarda jamiyatning g'amxo'rliqi sifatida namoyon bo'ladi. Kasb-hunarga yo'naltirish ishining bosh maqsadi o'ziga xos usullar yordamida mutaxassisning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish va aholining samarali bandligini oshirishga erishishdan iborat. Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kelgusi ta'lim yo'nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji) tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat. Kasb-hunarga yo'naltirish quyidagi ikki asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan:

- mehnat imkoniyatlarini oqilona taqsimlash va foydalanish hisobiga mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash;
- shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy himoyalash, chunki o'z qiziqishlari, moyillik va imkoniyatlariga mos kelgan kasbni tanlagan inson ham kasbiy, ham moddiy jihatdan tezroq uni o'zlashtiradi va sezilarli natijalarga erishadi.



Kasb-hunarga yoʻnaltirish ishining pirovard natijasi ijtimoiy – iqtisodiy omil boʻlib, shaxsga ham, davlatga ham real foyda keltiradi.

Kasb-hunarga yoʻnaltirishda quyidagi tamoyillar asos qilib olingan:

- kasb-hunarga yoʻnaltirish xizmatlarining majmuaviy xarakterdaligi;
- iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozorini oʻrganish va prognoz qilish orqali jamiyat va shaxs qiziqishlarini muvofiqlashtirish;
- shaxsni kasb-hunarga yoʻnaltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilish shakli, uslublari va vositalarining ilmiy asoslanganligi;
- Oʻzbekiston fuqarolarining va (lozim boʻlganda) boshqa davlat fuqarolarining oʻqish, ish joyi, yoshi, jinsi, millati va diniy dunyoqarashidan qatʼiy nazar kasbhunarga yoʻnaltirish xizmatlaridan foydalanishga teng huquqligi;
- kasb tanlash yoki almashtirish, taʼlim turi va ishga joylashish imkoniyatlariga nisbatan kasbiy va boshqa axborotlarning tushunarliqligi;
- umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻquvchilariga psixologik-pedagogik va kasb-hunarga yoʻnaltirish xizmatlarini koʻrsatishning majburiyligi va bepulligi, aholining boshqa guruhlariga davlat darajasida kafolatlangan kasbiy tashxis va maslahat berishning ixtiyoriyligi;
- kasbiy tanlov, tashxis va maslahat xulosalarining obʼyektivligi, maxfiyligi va tavsiyaviy xarakterda ekanligi;
- kasb-hunarga yoʻnaltirish xizmatlari xodimlarining kasbiy axloq normalariga rioya etishligi.

Kasb-hunarga yoʻnaltirish ishlarining asosiy obʼyekti: umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 1-9 sinf oʻquvchilari; oliy oʻquv yurtlari talabalari va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarining oʻquvchilari; ishdan boʻshashi kutilayotganlar; ish qobiliyati cheklangan shaxslar.

Maʼlumki, xalq taʼlimining asosiy bugunini uzluksiz taʼlim tashkil etadi. SHu sababli, bu masalaga alohida diqqat-eʼtibor qaratish darkor. Uzluksiz taʼlimni davlat taʼlim



standartlari va tegishli ta'lim dasturlari bilan ta'minlashda, avvalo, ularning jahon talablari darajasida bo'lishiga, yuksak ma'naviyat zaminida qurilganiga asosiy e'tibor berish kerak. SHuning uchun ham umumta'lim dasturlarini maktabgacha tarbiya, boshlang'ich, umumiy ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim tarzida tuzsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagi tizimni asos qilib olsak, ko'zlangan natijalarga erishamiz, deb o'ylayman. Birinchi. Maktabgacha ta'lim. Uch yoshdan boshlanib, olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulkchilik ko'rinishidan qa'ti nazar, boshqa xil ta'lim tashkilotlarida olib boriladi. Ikkinchi. Boshlang'ich ta'lim. 1-4 sinflarni o'z ichiga oladi va bunda o'qish olti etti yoshdan boshlanadi. Uchinchi. Umumiy ta'lim. Bunda o'quvchilarga 5-9 sinflar doirasida bilim va tarbiya beriladi. Alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak; umumta'lim maktabi barchamiz uchun majburiy bo'lib, ularda bolalarimizga umumiy bilim asoslarini chuqur o'rgatishimiz kerak, tom ma'noda farzandlarimizning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirishimizga asos solishimiz kerak. To'rtinchi. O'rta maxsus bilim va kasb-hunar ta'limi. O'qish muddati 3 yildan kam bo'lmagan akademik va kasb-hunar litseylari va kollejlari. Beshinchi. Oliy mutaxassislik ta'limi, odatda o'n sakkiz-o'n to'qqiz yoshdan boshlanib, to'rt yildan kam bo'lmagan muddatda davom etadi. Oliy mutaxassislik ta'limi bakalavrluk hamda magistraturaga bo'linadi. Bakalavrluk – yo'nalishlaridan biri bo'lib, bazaviy oliy ta'lim berish demakdir. Unda o'qish kamida 4 yil davom etib, oliy ma'lumot va tayanch mutaxassislik diplomini olish bilan tugaydi. Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha oliy kasbiy ta'lim bo'lib, bakalavrluk negizida kamida ikki yil davom etadi. Undagi tahsil yakuniy kvalifikatsion davlat attestatsiyasi va magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga yetkaziladi. Shu bilan birga, biz o'z ehtiyojlarimiz va ichki sharoitlarimizdan kelib chiqib, uzluksiz ta'limning rasmiy tizimida yakunlovchi bir bosqichni ham joriy etishimiz kerak. Bu bosqich ikki darajaga bo'linadi, ya'ni aspirantura va doktoranturadan iborat bo'ladi. Aspirantura nihoyasiga yetkazilgan magistrlik negizida 3 yil davom etadi. Aspiranturaning maqsadi – muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy kvalifikatsiyali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirish. Aspirantura akademik va



kvalifikatsion imtihonlari hamda nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish bilan yakunlanadi. Bu yakunlarga ko'ra, tanlangan mutaxassislik bo'yicha "fan nomzodi" ilmiy darajasi beriladi. Doktorantura fan nomzodi ilmiy darajasi negizida 3 yil davom etadi, dissertatsiya himoya qilish bilan yakunlanadi. YAkunga ko'ra, tanlangan mutaxassislik bo'yicha "fan doktori" ilmiy darajasini beriladi. Boshqacha aytganda, bu sohada avvalgi tartib saqlanib qoladi. Bulardan tashqari, yangi tizimda qo'shimcha kasbiy ta'lim – qayta tayyorlash va malaka oshirish masalasiga ham katta e'tibor

berilishi kerak. Kadrlar tayyorlash milliy modeli: Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat; SHaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi; Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari; Uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyati ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi; Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi; Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur'oni Karim. T.:Cho'lpon nashriyoti 1992.
2. Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Al-Buhoriy. Hadis. 4-kitob. Qomuslar bosh tahririyati
3. Ma'naviy kamolot omillari T.: Universitet nashriyoti